

**NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV
TALQINIDA**

Saidova Nodira Mustakimovna

Buxoro davlat universiteti

Pedagogik ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada navoiyshunos olim Rahim Vohidovning “Alisher Navoiy va ilohiyot” risolasida badiiy matnning tahlili, sharhlash mahorati, so‘z qo‘llash uslubiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: uslub, talqin, shariat, badiiy matn, sharhshunoslik, tushunish, mulohaza

Bugun o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy matnni tushunish, sharhlash va talqin qilish borasidagi qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Bahodir Karimning “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur”, M. Tojiboyev, Sh.Yusupova va E.Bo‘riyevalarning “Adabiy germenevtika va mumtoz badiiy til” nomli o‘quv qo‘llanmasi, adabiyotshunos olim D.Quronov “Talqin imkonlari“, Qozoqboy Yo‘ldosh va Muhayyo Yo‘ldoshlarning “Badiiy talqin asoslari” kabi yirik tadqiqotlari fikrimizni tasdiqlaydi¹. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, badiiy mahoratini tadqiq qilish, o‘zbek adabiyoti xazinasiga qo‘shgan buyuk xizmatlariga baho berish borasidagi juda ko‘p tadqiqotlar adabiyotshunoslar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Turkiy she‘riyatni janr va mavzu jihatdan boyitgan, turli fan sohalariga doir ilmiy, tarixiy, diniy asarlarni meros qoldirgan ulug‘ shoir asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalarining badiiy ifodasida teran tafakkur, falsafiy

¹ Баходир Карим. “Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т.: Академнашр , 2014; М. Тожибоев, Ш.Юсупова ва Э.Бўриева. Адабий герменевтика ва мумтоз бадий тил. –Т.: Университет ,2013. Д.Қуროнов. Талқин имконлари. –Т.: ; Турон замин зиё нашрети. 2015), Қозоқбой Йўлдош ва Мухайё Йўлдош. Бадий талқин асослари. –Т.: 2016.

mushohadakorlik kabi nozik qirralar adabiyotshunoslar e'tiboridagi muhim jihatlar hisoblanadi. Balki shuning uchun ham navoiyshunoslik o'zbek adabiyotshunosligining muhim bir yo'nalishi sifatida shakllandi va rivoj topdi.

Istiqlol sharofati bilan buyuk ijodkor qoldirgan boy ma'naviy merosga adolat mezonlari asosida yondashish va tadqiq qilishga keng yo'l ochib berildi. Natijada navoiyshunosligimizda qator tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, A. Hayitmetovning "Navoiyxonlik suhbatlari", "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti", A. Abdug'afurovning "Buyuk beshlik saboqlari", R. Vohidovning "Alisher Navoiy va ilohiyot", I. Haqqulovning "Navoiyga qaytish", S. Olimovning "Ishq, oshiq va ma'shuq", "Naqshband va Navoiy", N. Jumayevning "Satrlar silsilasidagi sehr", S. Hasanovning "Navoiyning yetti tuhfasini", H. Qudratullayevning "Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari", Sh. Sirojiddinovning "Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari" (qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlil, A. Erkinovning "Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari", K. Mullaxo'jayevaning "Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi" kabi qator tadqiqotlarda ulug' shoir ijodining turli qirralari tadqiq qilingan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy ijodi ozuqlangan muhim manba Qur'oni karim, Hadisi sharif hamda tasavvuf ta'limoti sanaladi. Ulug' shoir ma'naviy merosini mazkur manbalar bilan qiyosiy o'rganishni birinchilardan bo'lib filologiya fanlari doktori, professor, navoiyshunos olim Rahim Vohidov boshlab berdi. Olimning "Navoiy va ilohiyot" nomli yirik tadqiqoti ulug' shoirning uzoq yillar o'rganilmay kelingan muammolarga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos Rahim Vohidov garchi olimlik shohsupasiga ko'tarilgan bo'lsa-da, Qur'onni o'qimay turib, Navoiy va ilohiyot mavzusiga qo'l urish mumkin emasligini kamtarona tan oladi.

"Alisher Navoiy va ilohiyot" risolasining debocha **"Burun bilkim, erur shar' ichra ahkom..."** satrlari bilan boshlanadi. Mazkur satrlar Navoiyning islom qonuniyatlari va uning ijrosiga bag'ishlangan "Siroj ul-muslimiyn" asaridan olingan.

Asar islom shariatidagi hukmlar, ushbu qoidalarining bajarilish tartibi bayonotiga bag'ishlanadi:

Burun bilkim,erur shar' ichra ahkom,
Ki,bilmak ani bo'lmish elga nokom.
Ul ahkom ikki yanglig' bo'ldi mavjud-
Ki,bordur har birida o'zga maqsud.

Aynan ushbu betakror satrlar zamirida din va e'tiqod asosini tashkil qiluvchi aqidalar o'z ifodasini topgan. Ya'ni Navoiy "Shariatda shunday hukmlar mavjudki, bu hukmlarga amal qilmaslikning iloji yo'q" degan bir fikrni ilgari suradi. Adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning risola debochasida aynan shu misralarni keltirilishida aniq bir maqsad bor. Uning fikricha, ijodkorning ko'lamdor tarjimai holi, "daftari a'moli" o'z badiiy, ilmiy, tarixiy yaratmalari bag'riga "sochiladi", makon topadi. Ayni haqiqat Hazrat Alisher Navoiyga ham to'la daxldordir. O'sha noyob daftarning bir sahifasi "Muhokamat ul-lug'atayn"ni varaqlaymiz: "Bu xoksorga sabo avoilidakim, og'iz huqqasidin biror gavhar zohir bo'la boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur...chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti mayl forsiy sari bo'ldi. Ammo chun shuur sinnig'a qadam qo'yuldi, chun Haq subhanahu va taolo g'arobat sari maylni zotiy va diqqat va dushvor pisandlikka shuru'ni jibbily qilib erdi, turk alfozig'a dag'i mulohazani lozim ko'rudl" ².

Ta'kidlash joizki, Rahim Vohidov nazdida, har bir ijodkorning asari uning tarjimai holi hamda ruhiy dunyosidan darak beradi. Adabiyotshunos olimning badiiy matnni sharhlash mahoratida shu kuzatiladiki, birgina misralar orqali ijodkorning shaxsi, ta'bi, xulq-atvori, hayot yo'li, yashash tarzi, ozru-dardlari, armonlari, dunyoqarashi hamda ruhiy olamining o'zaro bog'liqligini aniq ma'lumotlar orqali asoslab bera oladi. Rahim Vohidov zukko tadqiqotchi sifatida yuqorida keltirilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridan keltirilgan parcha orqali Navoiy shaxsini

² Р. Воҳидов.Алишер Навоий ва илоҳиёт.Бухоро ; 1994. , 8-бет .

butkul gavdalantiradi. Uning nazdida, shu kichkina iqtibos juda ko‘p savollarga pishiq va ishonarli javob bera oladi.² Shu birgina jumla- “**Shuur sinnig‘a qadam** qo‘yilgach, turkiy she‘rlar yaratila boshlandi” deganda buyuk ijodkor nimani nazarga tutgan? Rahim Vohidov bu jumboqni yechish uchun ijodkorning boshqa asarlaridan ishoralar qidiradi. Navoiyshunos olim Rahim Vohidov bu jumboq yechimini “G‘aroyib ussig‘ar”dan topadi. Hazrat Navoiy “shuur sinnig‘a” iborasini qo‘llaganda 7-8 yoshni nazarga tutganligi ayon bo‘ladi. Yosh Alisher 7-8 yoshlariga qadar aniqrog‘i, 4-5 yoshlarida fors tilida nazmiy mashqlarini boshlaganligi ravshanlanadi. Rahim Vohidov Navoiy shaxsidagi bunday o‘tkir salohiyat egasi bo‘lishining sababi ijodkorning Qur‘on oyatlarini juda erta yod olganligi, islom ahkomlariga doimiy bo‘ysunganligida deb baholaydi. Navoiyshunos olim Rahim Vohidov “Eskilik sarqiti” deya tana-dashnomlar olgan eski maktabning debochasi aynan “Qur‘on”dan boshlanganligini taniqli muarrix olim va adib Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bog‘liq bir lavha asosida ochib beradi. “Majolis un-nafois “ ikkinchi majlisida keksa olim bilan bog‘liq ma‘lumotlarni yoshlik chog‘laridagi muhim bir voqea sifatida tavsiflaydi : “...Taxminan olti yoshimda bo‘lg‘ay erdim va Mavlono (Sharafiddin Ali Yazdiy- R.V.) bir rahbada o‘lturub ermishlar, tushgan jamoatning kayfiyatini ma‘lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg‘a muvaffaq bo‘ldim. Har nekim so‘rdilar, javob aytdim. Tabassum qilib tahsin qildilar, dag‘i so‘rdilarkim, maktabga borurmisen? Dedimkim: boribmen. Dedilarkim ”ne yergacha o‘qubsen? Dedimkim: “Taborak” surasigacha va o‘z fothihalariga musharraf qildilar.”³

Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov Navoiy shaxsining buyukligini Islom diniga bo‘lgan e‘tiqod bilan bog‘laydi. Birgina fikr va hayotiy lavha asosida bugungi ta‘limdagi kemtik tomonlarni tanqid ostiga oladi. O‘sib kelayotgan yosh avlod savodxonligida diniy bilimlarning ustunligini asoslab bera oladi. O‘tmishda ta‘lim berishda zohiriy va botiniy bilimlarning yonma-yon o‘qitilganligini alohida ilova

³ P.Воҳидов.Алишер Навоий ва илоҳиёт.Бухоро ; 1994 й,10-бет


qiladi. Olim yana shuni alohida sharhlaydiki, garchi Qur'on tafsirini bilmay turib oyatlarini yod olgan bolaning zehni o'tkir, talaffuzi, nutqi hamda qiroat san'ati o'tkirlashadi. Shundagina dunyoviy bilimlarning haqiqiy bilimdoniga aylanadi. Rahim Vohidov Navoiyning ilohiyot bobidagi har bir qadamini "Ibrat maktabi, kamolotning yuksak pog'onasi" deb ta'kidlaydi. Zukko olim Alisher Navoiyning Qur'on ta'limotiga bo'lgan e'tiqodini Naqshbandiya olamining ulkan arbobi sanalgan Abdurahmon Jomiy nomi bilan ham bog'laydi. Navoiy yashagan davrda Jomiy Xuroson davlatining shayx ul-islomi nomiga sazovor shaxs edi. Jomiy va Navoiyning o'zaro munosabatlari ustozu shogirdlik rishtalari asosida bog'langan edi. Bu ikki betakror qalb sohiblarining do'stona munosabatlari ikki xalq va adabiyot qardoshligining yorqin timsoliga aylandi. Buyuk shoir Alisher Navoiy ilohiyotga doir bilimlarini bevosita Jomiy ishtirokida, uning huzurida amalga oshirdi. Badiiy ijodning nazariy masalalarini, tasavvuf ta'limoti va tarixi, ilohiyotga oid saboqlarni aynan Jomiy dargohida o'zlashtirdi, o'rgandi. Jumladan, bu tabarruk dargohda "Nafahot-ul-uns", "Lavoyeh", "Sharhi ruboiyot", "Lamaot", "Ilohiynoma" singari ko'pgina ilohiyotga bag'ishlangan asarlar bilan tanishdi, qunt bilan o'rgandi. Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov Alisher Navoiyning ilohiyotga, din-u urfonga, shariati islomiyaga doir qarashlarini kengaytirishda juda ko'p ustozlarni, shular qatorida Jomiy xizmatlarini alohida tilga oladi. Bu munosabatlarni yetarli asos va dalillar orqali ifodalab beradi. Yana shunday ustozlardan biri sifatida Xoja Fayzulloh Abullays Samarqandiydir. Alisher Navoiyning fiqh, ya'ni islom qonunshunosligi borasidagi bilimlarini egallashida bu donishmandning hissasi benihoyat katta edi. Yetuk islomshunos olim Fayzulloh Abullays Samarqandiy ilmga chanqoq shogirdi - Alisher Navoiyga alohida ehtirom ko'rsatdi. Fiqh sir-asrorlarini o'rgatdi. Ustozining samimiy munosabatidan masrurlangan Alisher Navoiy keyinchalik o'zining "Majolis un-nafois" asari sahifalarida ulug' donishmand nomini alohida tilga oldi. Zero, shuurga singgan bilim vaqt tanlamaydi. Ya'ni yoshlik xotira-yu taassurotlari zamidida o'zlashgan bilim buyuk Navoiyning har bir asarida o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi.

Zukko sharhnavis olim Rahim Vohidov o‘ta sinchkovlik bilan Alisher Navoiyning ilohiyotga bo‘lgan munosabatining yana bir fikr orqali asoslab beradi : “Ulug‘ Alisher Navoiy shaxsida ko‘zga tashlanadigan yana bir jihat shundaki, u o‘z vujudida harakatda bo‘lgan ilohiy mo‘‘jizani hamisha his etib, uning manbai-Allohga shukrona aytish, unga sig‘inishdan tilini kanda qilgan emas. Shundan bo‘lsa kerak, ulug‘ shoirning kattayu kichik deyarli barcha asarlari Alloh, uning rasuli ,chahor yori bosaf va aziz avliyolarni sharaflashdan boshlanadi. “Devon”lardan joy olgan turkum she’rlar, “Xamsa” dostonlari ibtidosida kelgan hamd, na’t, sano, me’roj, munojot talqiniga atalgan maxsus boblar nasriy asarlari “Mahbub ul-qulub”dagi o‘sha mavzuga ba’g‘ishlangan fasllar aytganlarimizga shohiddir. Ayni parchalar bag‘oyat muhim va ular jiddiy tahlilga sazovordir. Chunki o‘sha misralarsiz Alisher Navoiyning falsafiy va ilohiy qarashlarini mukammal o‘rganish aslo mumkin emas”⁴. Navoiyshunos olim Rahim Vohidovning “Alisher Navoiy va ilohiyot” risolasi ilk debochasida aynan **“Burun bilkim, erur shar’ ichra ahkom...”**“satrlarining keltirishida hikmat ko‘p. Islom shariati ahkomlarini o‘z hayotining shuuriga aylantirgan ulug‘ Alisher Navoiy dinda farz qilingan amallar hamda musulmonchilikning muhim shartlarini to‘la ado qilishi haqidagi ma’lumotlar navoiyshunos olim Rahim Vohidov tomonidan aniq dalillar asosida ochib beriladi. Jumladan, Navoiyni zarofatli va metin e’tiqodli shaxs sifatida gavdalantirib, uning hayotini namozsiz tasavvur qilib bo‘lmasligini, “Kalimayi shahodat”ni tilidan sira kanda qilmasligini, beva-bechoralarga ko‘rsatadigan mehr-muruvvatini ilmiy dalillar asosida talqin qiladi. Adabiyotshunos Rahim Vohidov mazkur hayotiy lavhalarni tasdiqlash maqsadida buyuk tarixchi Xondamirning “Makorimul-axloq” asaridan iqtiboslar keltiradi: “Ramazon oyida oliy makon Amir xayrot va sadaqaning miqdorini imkoni boricha orttirishga tirishadi. Odatiy shilonda bir necha bosh qo‘y va uning kerak yarog‘ini ko‘paytirardi. Har kechasi ulug‘ sayidlar, zamon olimlari, oliy martabali amirlar va baland darajali

⁴ Р.Воҳидов.Алишер Навоий ва илоҳиёт.Бухоро ; 1994. –Б. 24.

sadrlardan ko'pgina kishi Amir huzurida iftor qilishardi. Ul hazrat mehmonlari rioya qilib, ovqatni o'zlari tortardi⁵.

Ushbu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Alisher Navoiy musulmonchilikning "zakot berish" shartini ham risoladagidek bajo keltirgan. Faqatgina islom shariatida ko'rsatilgan besh ustunning biri bo'lgan "haj safari"ni ado qilish ulug' shoirga nasib qilmadi. Navoiyshunos Rahim Vohidov bu fikrni ilmiy asoslash maqsadida yana Xondamirning fikrlariga murojaat qiladi : "Ul hazratga o'sib-unish kunlari boshlanishidan to hayotining oxirgi damlarigacha boshida islom hajini o'tash havasi va xotirada payg'ambar qabrini ziyorat qilish joylashgan edi".⁶ Rahim Vohidov ana shu istakning amalga oshmaganligini bir necha fikrlar doirasida e'tirof etadi :



Navoiyshunos olim Rahim Vohidov Alisher Navoiyning musulmonchilikning beshinchi shartini ado qilolmaganligida yuqoridagi sabablarni ko'rsatibgina qolmay, ulug' Navoiyning qalbida yana bir ilinj mavjudligini Xondamir ma'lumotlari asosida bayon qiladi: "...Agarchi ...ul hazratga Makkai mukarramaga va Madinai tayyiba

⁵ Хондамир. Макоримул-ахлоқ.Т-1968, 74-бет.

⁶ Ўша асар, 75-бет.

erishish saodati hosil bo‘lmagan bo‘lsa-da, ammo qayta-qayta e’timodli va ishonchli kishilarni ,ko‘p yaxshiliklar qilib, o‘zi tomonidan haj qilmoq uchun yubordi.”⁶

Adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning badiiy matn tahlilidagi uslubda shu kuzatiladiki, keltirilgan iqtiboslar bir-birni o‘zaro to‘ldiradi. Bu esa kitobxonni ilgari surilayotgan masala yuzasidan aniq ma’lumot olishini ta’minlaydi. Rahim Vohidov Alisher Navoiyning haj safari bilan bog‘liq istagi amalga oshmaganligi haqidagi ma’lumot bilan cheklanib qolmaydi. U buyuk shoirning keyingi istaklari bilan qiziqadi. Hizoj safaridan butunlay umidini uzgan Alisher Navoiy Husayn Boyqarodan qolgan umrini Ansoriya ostonasini surupishga sarflashini , uni mulozimlikdan ozod qilishini so‘raydi : “...Menga esa Hijoz safariga xohish va rag‘bat bilan ijozat bermaysiz. Endi ruxsat bersalarki, sizning vakolatingiz bilan qolgan hayotimni Ansoriya ostonasini supurishga sarf qilsam, mulozimlik ishlaridan batamom ozod bo‘lsam, chunki qarilik madorsizligi vujudimga ta’sir ko‘rsatib, quvvat yoqolgan, badan zaiflashgan”.⁷

Adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning badiiy matn tahlilidagi uslubi o‘zgacha. Olim o‘z fikr-mulohazalarini hissiyot bilan bayon etadiki, go‘yo qarshingizda uning siymosi namoyon bo‘ladi. Fikrlari teran, mulohazalari aniq. Tahlil jarayonida hayotiy lavhalarning o‘rinli keltirilishi kitobxonni hayratga soladi.

Xulosa qilib aytganda, Rahim Vohidovning “Alisher Navoiy va ilohiyot” risolasining ilk debochasi islom shariati ahkomlarining ijrosi, ilohiyotning Navoiy shaxsi kamolotidagi o‘rni va ta’siriga ba’g‘ishlanadi. Zero, Navoiy asarlarida ilohiy tuyg‘ularning ufurib turishi, ilohiyot nafasining barq urushi badiiy adabiyot xazinasining yutugidir .

⁷ Ўша асар ,79 –бет.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳодир Карим. “Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т.: Академнашр , 2014;
2. М. Тожибоев, Ш.Юсупова ва Э.Бўриева. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. –Т.: Университет ,2013.
3. Д.Қуронов. Талқин имконлари. –Т.: ; Турон замин зиё нашрети. 2015
4. Қозоқбой Йўлдош ва Муҳайё Йўлдош. Бадиий талқин асослари. –Т.: 2016.
5. Р.Воҳидов.Алишер Навоий ва илоҳиёт.Бухоро ; 1994. –Б. 24.
6. Хондамир. Макоримул-ахлоқ.Т-1968, 74-бет.